

ZAHMATKASH USTOZ

Dilorom To‘rayeva

*falsafa fanlari doktori (PhD), katta
ilmiy xodim*

Har bir sohaning rivojlanishi, uning takomillashib borishida mazkur soha vakillarining o‘z o‘rni bor. Bu hoh ilm-fan bo‘lsin, hoh tibbiyot, pedagogika yoki iqtisodiyot, qaysi yo‘nalish bo‘lishidan qat’iy nazar uning o‘z fidoyilari bo‘ladi. Albatta, ko‘pchilik uncha e’tibor qaratmaydigan, hattoki “nazarnogir” bolalar adabiyoti ham bundan mustasno emas. Maqolamiz qahramoni, o‘zbek bolalar adabiyotining rivojiga o‘zining ulkan hissasini qo‘shgan, uning tarixi, bugungi holatini chuqur tadqiq etgan va shogirdlari bilan izlanishlarda davom etayotgan ustoz Rahmatulla Barakayev ham aynan yuqorida ta’kidlaganimiz, o‘zbek bolalar adabiyotining fidoyilaridan biridir.

Men ustoz, Rahmatulla Barakayev bilan 1995-yildan buyon birgalikda faoliyat olib boraman. Fanlar akademiyasining Boshqaruv apparatiga ishga kelgan, ya’ni talabalikdan so‘ng ilk mehnat faoliyatimni boshlagan davrlarim... Ushbu muqaddas dargohda xalqimizning eng zabardast olimlari, ziyolilari, yuksak madaniyat sohiblarining orasiga tushib qolish mendek yosh qizcha uchun chinakam baxt edi. Chunki institutni bitirish arafasida, davlat imtihonlarini topshirish jarayonida ustozlarimizdan aspiranturada qolish taklifi bildirilgan edi, ammo ma’lum sabablarga ko‘ra uydagilardan bu taklifga rad javobini olgan edim. Taqdir taqozosini qarangi, peshonamga baribir olimlar, ziyolilar bilan ishlash baxti bitilgan ekan.

O‘sha paytlarda Rahmatulla Barakayev Fanlar akademiyasi O‘zbek tili va adabiyoti institutining ilmiy kotibi, men esa aynan ularning faoliyati bilan bog‘liq aspirantura va doktoranturaga mas’ul xodim sifatida faoliyat olib borardim. U kezlarda Fanlar akademiyasi tizimida 60 ga yaqin ilmiy tashkilotlar bo‘lib, ularda 800-900 nafarlar chamasi yosh tadqiqotchilar tahsil olardi. Har bir institutning ilmiy kotiblari aspirant va doktorantlar faoliyati borasidagi ma’lumotlarni taqdim etishda mas’ul bo‘lgani kabi, Ustoz ham O‘zbek tili va adabiyoti institutining aspirant va doktorantlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarga juda mas’uliyat bilan yondoshar edilar. Ulardan kelgan ma’lumot har doim o‘z muddatida (yoki muddatidan oldin) va kamchiliksiz bo‘lardir. Aynan o‘z ishlariga bo‘lgan mas’uliyat va tartib-intizom sababli Rahmatulla Barakayev Boshqaruv apparatidagi rahbariyat hurmatiga ham sazovor bo‘lgan. Biz tizimdagi boshqa ilmiy kotiblarga ustoz faoliyatlarini doimo o‘rnak sifatida ko‘rsatardik. Fanlar akademiyasining Ijtimoiy-gumanitar fanlar bo‘limi ilmiy kotibasi, fidoyi xodima, bir necha vitse-prezidentlar bilan ishlagan

Mastura opa Ismoilova (Olloh rahmat qilsin) ham Rahmatulla akani juda hurmat qilardilar, kezi kelganda turli vaziyatlar borasida maslahatlar co‘rardilar.

Oradan yillar o‘tdi, mendagi ilmiy ish qilish istagi olimlar davrasida yanada kuchayardi va odatdagi suhbatlarimizdan birida Rahmatulla akaga mening ham ilmiy ish qilish niyatim borligi to‘g‘risida iymajibgina aytdim. Shunda ustoz menga xalqimizda «Chin ko‘ngildan istasang, so‘qir ko‘zdan yosh chiqadi» degan maqol bejizmasligini ta’kidlaganlari kechagidek yodimda. Ustozning bu gaplari menga kuch-quvvat bag‘ishlagan edi. Shu tarzda biz 2009-yildan boshlab, ustoz-shogird sifatida faoliyat olib borishni boshladik. Avvalboshi, ustoz menga bolalar adabiyoti bo‘yicha bir qator kitoblarni mutolaa qilishni aytdilar. Men bu kitoblarni o‘qib bo‘lib oldilariga borsam, yana boshqa ro‘yxat berardilar... Bu jarayon ancha vaqt davom etdi. Vanihoyat, berilgan adabiyotlarni o‘qib bo‘lganimdan so‘ng, menga ilmiy mavzu berildi. Mavzu bolalar yozuvchisi Habib Po‘latov ijodi bilan bog‘liq edi. Men H.Po‘latovning barcha asarlarini topib, o‘qib chiqdim. Qo‘ldan kelgancha asarlarni tahlilga tortib, bir maqola ham qoraladim va ustozga ko‘rsatish uchun olib bordim. Shunda maqolani o‘qib ko‘rgan Ustoz menga qarab turib “Ana endi, ishni boshlasak bo‘larkan” dedilar. Men hayron bo‘ldim va ulardan nimaga bunday deganlarini so‘radim. Shunda ustoz, ilm qilish igna bilan quduq qazish demakdir, ilmiy ish qilishni havas qiladiganlar talaygina, ammo uning mashaqqatiga hamma ham chiday olmasligini aytdilar. Endi o‘ylab ko‘rsam, ustoz menga mutaxassisligim boshqa bo‘lgani sababli, bolalar adabiyotini deyarli sirdan o‘qitgan ekan. Demak, ustoz qariyb bir yil davomida mening ilmga bo‘lgan ishtiyoqim haqiqat yoki havas ekanligini o‘rgangan. Shundan so‘ng menga Quدرات Hikmat ijodiga bag‘ishlangan mavzuni ko‘rib chiqishimni maslahat berib, qo‘limga shoirning “Olmos mening yuragim” kitobini “Sizga sovg‘a” deb tutqazdilar. Oradan biroz vaqt o‘tgach, menga Quدرات Hikmatning shogirdi, shoir Tursunboy Adashboyev (Olloh rahmatiga olsin) bilan suhbatlashganlarini va mening u kishi bilan uchrashishim kerakligini aytdilar. Shu tariqa XX asrning hassos bolalar shoiri Quدرات Hikmat ijodiga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlarni boshlaganmiz....

Yuqoridagi voqealarni qoralashimdan maqsad, bugungi kunga kelib shogirdining nafaqat dissertatsiyasi, hattoki avtoreferatini ham shunchaki ko‘z yugurtirib chiqadigan ilmiy rahbarlar ko‘payib ketgan bir davrda ustozning shogird bilan ishlash mas‘uliyatini e’tirof etishdir. Ustoz qariyb chorak asr davomida institut ilmiy kotibi sifatida faoliyat yuritgan bo‘lsada, shu davr mobaynida o‘zbek bolalar adabiyoti bo‘yicha o‘zining ilmiy-adabiy maktabini yaratishga ham muvaffaq bo‘ldi. Mas‘uliyatli lavozimdan vaqt orttirib, shogirdlaridan o‘zining qimmatli maslahatlarini ayamagan Rahmatulla Barakayev rahbarligida 3 nafar filologiya fanlari nomzodi va 4 nafar filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori tayyorlangan.

Bugungi kunda esa uning rahbarligida 2 nafar tayanch doktorant va 1 nafar mustaqil izlanuvchi filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori dissertatsiyasi ustida ish olib bormoqda.

O‘zbek bolalar adabiyotining bugungi manzarasini ko‘rsatishda Rahmatulla Barakayevning tadqiqotlari alohida o‘rin tutadi. Uning izlanishlari o‘zbek bolalar adabiyotining tarixi, shakllanish va taraqqiyoti muammolarini, shuningdek adabiy aloqalar, tarjima tarixi va nazariyasini o‘rganishga qaratilgan. XX asr va istiqloq davri o‘zbek bolalar she‘riyati takomil xususiyatlarining ilmiy-nazariy jihatdan o‘ziga xos belgilarini ko‘rsatib bergan. Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, G‘afur G‘ulom, Zafar Diyor, Quddus Muhammadiy, Qudrat Hikmat, X.To‘xtaboyev, Miraziz A‘zam, S.Barnoyev, T.Adashboyev, Anvar Obidjon, H.Imonberdiyev, Dilshod Rajab, Abdurahmon Akbar singari shoirlar ijodini o‘ziga xos nozikta‘blik bilan tahlil qilgan hamda ularning o‘zbek bolalar she‘riyati takomilidagi o‘rni va rolini ko‘rsatishga erishgan.

Rahmatulla Barakayev 10 dan ortiq monografiya va risolalar muallifi, respublika va xorij matbuotida 270 dan ortiq ilmiy va ilmiy-ommabop maqolalari e‘lon qilingan. 60 dan ortiq respublika ilmiy anjumanlarida va 10 dan ortiq xorijiy anjumanlarda ilmiy ma‘ruzalar bilan ishtirok etgan.

Uning “Jonajonim she‘riyat” (1997), “O‘zbek bolalar adabiyoti va Abdulla Avloniy ijodi” (2004), “Tursunboy Adashboyev fenomeniga bir nazar” (hammualliflikda, 2014), “Badiiy tasvir mahorati” (hammualliflikda, 2021), Abdulla Avloniyning “Muxtasar tarixi anbiyo va tarixi islom” (2018) va “Bolalar adabiyoti” (2019) oliy o‘quv yurtlari uchun yaratilgan darsliklarining qayta-qayta nashr qilinishi, olim mehnatlarining adabiyotshunoslikda ma‘lum o‘rni borligidan dalolatdir.

Filologiya fanlari nomzodi, professor Rahmatulla Barakayev mamlakatimiz ilm-fanini rivojlantirish, xususan o‘zbek bolalar adabiyoti va tarjimashunosligi borasidagi xizmatlari davlatimiz tomonidan munosib baholanib, “Sog‘lom avlod” (2000) ordeni bilan mukofotlangan.

Bugun o‘zining muborak 70 yoshini qarshilayotgan USTOZga uzoq umr, sihat-salomatlik, ijodiy parvozlar hamda bolalarcha sofdillik va samimiylilik hech qachon tark etmasligini tilab qolamiz.